



Latofat XALIKOVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti
E-mail: Latofatxalikova02@gmail.com

O'ZDJTU professori, filologiya fanlari doktori J.Yakubov taqrizi asosida

THE APPEARANCE OF LINGUISTIC UNITS DEPICTING THE APPEARANCE OF THE PORTRAIT IN ART TEXT TODAY

Annotation

This article is about the appearance of linguistic units depicting the appearance of a portrait in an artistic text today, as well as the artistic translation in our country in recent years, among other areas of translation, is widely developing. While in the pre-independence periods in our country, samples of world literature were carried out by indirect translation into Uzbek or into foreign languages, today such artistic translation activities are approached by direct translation.

Key words: Portrait, artistic text, artistic analysis, principle, intertextuality, intertextual texts, stable combination, artistic-aesthetic pleasure, languages and culture of peoples.

ПОЯВЛЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ОПИСЫВАЮЩИХ ВНЕШНИЙ ВИД ПОРТРЕТА, В СОВРЕМЕННОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В данной статье речь идет о появлении языковых единиц, изображающих внешность портрета в художественном тексте в наши дни, а также о том, что художественный перевод в нашей стране в последние годы, среди других направлений перевода, получает широкое развитие. Если в донезависимый период в нашей стране образцы мировой литературы осуществлялись путем косвенного перевода на узбекский язык или на иностранные языки, то сегодня к подобной художественной переводческой деятельности приближаются путем прямого перевода.

Ключевые слова: Портрет, художественный текст, художественный анализ, принцип, интертекстуальность, интертекстуальные тексты, устойчивое сочетание, художественно-эстетическое наслаждение, языки и культуры народов.

BUGUNGI KUNDA PORTRÉTNING TASHQI QIYOFASINI BADIY MATNDA TASVIRLOVCHI LISONIY BIRLIKLAR KO'RINISHI

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda portretning tashqi qiyofasini badiiy matnda tasvirlovchi lisoniy birliklar ko'rinishi hamda So'nggi yillarda yurtimizda badiiy tarjima ham tarjimaning boshqa sohalariga qatori keng rivojlanib bormoqda. Yurtimizda mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga yoki o'zbek adabiyoti durdonalari xorijiy tillarga bilvosita tarjima orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda bu kabi badiiy tarjima faoliyatlariga bevosita tarjima orqali yondashilmoqda.

Kalit so'zlar: Portret, badiiy matn, badiiy tahlil, tamoyil, intertekstuallik, intertekst matnlar, barqaror birikma, badiiy-estetik zavq, xalqlarning tillari va madaniyati.

Kirish. Bugungi kunda insoniyat globallashuv davrida jahon xalqlari adabiyotining turli tillarga tarjima qilinishi, shu orqali o'sha xalqlarning tillari va madaniyati borasida axborot almashinuvi sodir bo'ladi. Bu kabi axborotlarni o'zga xalq o'quvshilariga yetkazishda badiiy tarjima katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda badiiy tarjima orqali badiiy adabiyotda mujassam bo'ladigan xalqlarning madaniyati, an'ana va qadriyatlar, turmush tarzi, ularning xarakteri va boshqa jihatlari xorijiy til o'quvshilariga yetkaziladi. Badiiy adabiyot o'quvshida o'ziga xos badiiy-estetik zavq bag'ishlovchi, turli xil tasviriy vositalarning qo'llanishi orqali o'quvshini o'ziga jalb yetuvshi ijodiy jarayondir. Badiiy asar qahramonlarining portret shizgilari va ishki keshinmalari hamda ularni ifodalashda qo'llanuvshi til birliklarini badiiy tarjimada qayta yaratishning lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlarini aniqlash, bu kabi til birliklarini xorijiy tilga o'girishda qo'llanadigan tarjima uslub va usullarini keng tadqiq yetish, inson tashqi qiyofasini badiiy matnda tasvirlashning milliy-madaniy xususiyatlari va ularni badiiy tarjimada aks yetishi masalalari bugungi tarjimashunoslik sohasida tadqiq yetilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda badiiy tarjima ham tarjimaning boshqa sohalariga qatori keng rivojlanib bormoqda. Yurtimizda mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga yoki o'zbek adabiyoti durdonalari xorijiy tillarga bilvosita tarjima orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda bu kabi badiiy tarjima faoliyatlariga bevosita tarjima orqali yondashilmoqda.

Portret (frans. *portrait* – tasvir) – 1) tasviriy san'at janri; real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida raydo bo'lgan xayoliy qiyofalarning tasviri. Rang-tasvir, Haykaltaroshlik, Grafika, shuningdek, Fotografiya san'atining muhim janrlaridan biri. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish mumkin. Uning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli)ga aynan o'xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqei aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati, portret ishlash uchun tanlagan materiallari yesa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o'ziga xoslik baxsh yetadi. Tarixan portretning xilma-xil tur va ko'rinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga ko'ra, dastgoh (kartina, byust, grafika varag'i) va monumental (xaykal, freska, mozaika), tantanavor rarad va intim, xajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi, beligacha, butun bo'ybasti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, medallar yuzasiga (medal yasash san'ati) ishlangan, gemma (glirtika), medalionlarda miniatura portret keng tarqalgan. Bu janrdagi bir asarda ko'rincha bir necha janrlar qo'shilishi mumkin. Unda tasvirlanuvchi sof holda (zamansiz, ya'ni atrof muhitni aks yettirmasdan), tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muhitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda uni portret va portret-kartina (janrli)ga ajratiladi. Uning keng tarqalgan turlaridan biri – avtorportret. Tasvirlanayotgan kishilar soniga

ko'ra, yakka, qo'shaloq va guruh rortretlarga bo'linadi. Redagogika fanlari doktori I. To'xtasinov o'zining "Tarjimon tayyorlashda kasbiy komretensiyalarni yekivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida tarjimada inson tashqi ko'rinishi va xarakterini tasvirlovchi gender belgisi va belgisiz qo'shma so'zlarning uslubiy xususiyatlari masalasiga ham to'xtalib o'tgan. Olim ingliz va o'zbek tillarida inson tashqi ko'rinishi va xarakterini ifodalovchi bir qancha qo'shma so'zlarni keltirib o'tadi va ularning yekivalentlik darajasi borasida so'z yuritadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. I. To'xtasinov yerkak kishining tashqi ko'rinishini ifodalovchi ingliz tilidagi qo'shma so'zlarga bald-coot, bald-faced, barrel-bellied, bullet-head, camel-back, face-fungus, grey-haired, lack-beard leksik birliklarini, o'zbek tilidagi qo'shma so'zlarga xushmo'ylov, oqsoqol, habashbashara, takasoqol, yechkisoqol, yaltirbosh, navjupon, terakal, ulug'sifat, xomsemiz, shabko'r kabi so'zlarni keltirib o'tadi. Bundan tashqari tadqiqotda ayol kishini tashqi ko'rinishini ifodalovchi qo'shma so'zlar ham keltirilgan bo'lib, ularga ingliz tilida bluye-stocking, damselfly, good-looker, large-yeyed, white-haired, made-up, madonna-braided, riye-yeyed kabilar, o'zbek tilida yesa gulchehra, dilnavoz, rari-chehra, xushqomat, xushtabassum, xushxandon, sohibjamol, gulbadan, yerkakshoda, sarvqomat, badchehra kabi so'zlarni kiritish mumkinligini ye'tirof yetadi. Shuningdek, mazkur izlanishda inson tashqi qiyofasini ifodalovchi gender belgisiz, ya'ni ham yerkak kishini, ham ayol kishining tashqi qiyofasini tasvirlovchi qo'shma so'zlarga ham to'xtalib o'tilgan bo'lib, ingliz tilidagi mazkur qo'shma so'zlarga baby-faced, boss-yeyed, bow-legged, cheyebone, dry-yeyed, fair-haired, full-faced, good-looking, half-caste, ill-favoured kabi leksik birliklarni, o'zbek tilida yesa zag'chako'z, mo'rchamiyon, olako'z, badburush, xomsemiz, chillashir kabi so'zlarni misol qilib keltirgan. Bundan ko'rinish turibdiki, ingliz va o'zbek tillarida insonni tashqi ko'rinishini ifodalovchi lisoniy birliklarning o'zaro to'liq yekivalent bo'lishi deyarli har doim ham uchrayvermaydi. Bu bevosita ingliz va o'zbek tillarining inson tashqi qiyofasini ifodalovchi leksik birliklarning lingvokulturologik va uslubiy jihatlariga bog'liq. Jumladan, ingliz tilida ayolning tashqi ko'rinishini ifodalovchi riye-yeyed leksik birligi alkogol maxsulotidan mast holatda bo'lgan ayol kishini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu so'zni o'zbek va ingliz tillariga tarjima jarayonida qo'llashimiz mumkin yemas. Chunki o'zbek ayollari orasida alkogol maxsulotini iste'mol qilish urfga kirmagan. Bu kabi madaniyat va xalqlarning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy holatlardagi farqlar bevosita inson qiyofasini tasvirlash uchun qo'llanadigan lisoniy vositalarga ham tasir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Odatda badiiy adabiyotda inson tashqi qiyofasini tasvirlashda qahramonning tashqi ko'rinishi, yuzi, yuzidagi qoshi, ko'zi, burni, sochi, peshonasi, jag'i, yanog'i, shuningdek uning kiygan kiyimi, yoshi kabilar tasvirlanadi. Quyida ingliz va o'zbek tillarida badiiy matnda insonning tashqi qiyofasini tasvirlovchi leksik birliklar birma-bir havola etiladi:

Yuzni tasvirlovchi lisoniy birliklar:

Ingliz tilida – horried, frightened, straight, sallow, white, unruffled, peaceful, placed, purple, worried, lean, the dark, perfect, ruddy, open, plump, clawing, stony, lowly, ivory, pretty, perfect, round, smiling, red va shu kabilar;

O'zbek tilida – ko'rimsiz, sovuq, ifodasiz, sarg'aygan, sap-sariq, oppoq, sokin, qizarib bo'g'riqqan, tashvishli, ozg'in, qoramtir, guldek, sog'lom, to'lgan oydek, g'uborsiz, cho'ziq, qizil, o'lik, go'zal chehra, quyosh, keng, sarg'ish, nozik va shu kabilar.

Ko'zni tasvirlovchi birliklar:

Ingliz tilida – blue, magnificent, black, beautiful, angry, red, dark, fine, bright, cold, weak, young, watchful, sharp, large protruding, twinkling, dozing, good, haggard, ghostly, fish-like, uncomplaining, frenzied, alarmed va boshqalar;

O'zbek tilida – ko'k, jodu, qora, shaxlo, bejo, qontalash, chaqnoq, quralay, sovuq, hayratli, kirtaygan, o'tkir, katta, porlayotgan, mamnun, horg'in, toliqqan, baliq itoatkor, darg'azab, vahimali, beg'ubor, g'ayritabiyy, ma'nosiz, g'amgin va shu kabilar.

Qoshni tasvirlovchi birliklar:

Ingliz tilida – bushy, shaggy, thick, arched, left, delicate, sandy, pretty, straight, yellow, elevated, brown, gray, thin, false, scant, queer, curved, uplifted, prominent, expressive, light, eloquent, incredulous va shu kabilar.

O'zbek tilida – qalam qosh, qora, qoshi yoy, hilol, o'siq, siyrak, pahmoq, chimirilgan, egar qosh, tarang, kamon, qiyiq, qalin, egma, ingichka qosh, payvasta, quyuq, qunduz, tutash, terilgan qosh va boshqalar.

Teri rangini tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – negro, weather-beaten, white, black, brown, green, sunburned, flushed, pale, purple, tanned, yellow, fair va boshqalar;

O'zbek tilida – to'q qora, uniqqan yuzli, oppoq, qoramtir, sog'lom, o'lik, qoraygan, qizargan, oqarib ketgan, qizarib bo'g'riqqan, sariq rangli kabi leksik birliklar.

Sochni tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – bristly, short-haired, long, brown, curly, pretty, fuzzy, blond, lanky, dark, uncommon long, unkempt hair, thick, straw-coloured, grizzly, sliver, golden, white, rough, uncombed, false va shu kabilar;

O'zbek tilida – kokil, soch, uzun, qo'ng'ir, jingalak, zulfi, gajak-gajak, gungurt, zulfi tol, toqimini o'pgan, to'zg'igan, qirq kokil, rangsiz, oq oralay boshlagan, kumush, oltin, oq, qovrigan, quyuq, pahmoq, tutamchoch, yasama va shu kabi leksik birliklar.

Isnon gavdasini tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – elegant, enormous, gigantic, elfin, upright, fat, heavy, too short, slim, tall, pump, hunched, beefy, brawny, muscular, obese, slender, coltish, angular, elephantine, portly, charming, delicate, bluff, heavily, feeble, solid, giant va boshqalar;

O'zbek tilida – kelishgan, bahaybat, ulkan, mitti, tik, semiz, gavdali, pakana, nozik, baland, dumaloq, qaddi bukilgan, yo'qon, baquvvat, alpqomat, biqqidek, latifqomat, novcha, beso'naqay, fildek bahaybat, barvasta, latofatli, ko'xlik, alifdek, nimjon, zim-zambil, devqomat, to'la va shu kabilar.

Soqolni tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – straw-color, white, black, tawny, pointed, golden, bristly, curly, shaggy, scarce-bearded, grey, reddish, yellow, big, cut, as white as snow, blue, chinchilla, red, reddish, long, hungerly, soft, delicate, disheveled va boshqalar;

O'zbek tilida – sarg'ish, oq, qora, malla, cho'qqi, soqollari yulingan, echki soqol, oltinrang, malla, dag'al, jingalak, paxmoq, siyrak, tillatus, to'rvasoqol, sabza urgan, ketmon soqol, kalta, oppoq, ko'kamtir, moshkichiri va shu kabilar.

Xulosa va takliflar. Yuqorida yuz tasvirini ifodalashda qo'llanadigan leksik birliklar ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qo'llangan so'zlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bular mazkur tillardagi lingvistik xususiyatlardan tashqari, o'ziga xos lingvokulturologik va lingkognitiv xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Jumladan inson gavdasini ifodalashda qo'llanadigan "alpqomat" leksik birligi lingvokulturologik xususiyatga ega bo'lib, odatda kuchli, katta gavdaga ega bo'lgan, baquvvat insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu so'z O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagi ma'nolarga ega: 1. Qadimgi turkiy xalqlarda ikki qo'shin o'rtasidagi jang boshlanishidan oldin yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi jangchi; 2. O'zbek xalq dostonlarida g'ayritabiyy kuch-quvvati, mardligi, jasorati va shu kabilar bilan ajralib turadigan qahramon sifati. Xalq dostonlari xalq og'zaki ijodi hisoblanib, unda xalqning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, olamni milliy anglashi kabilar namoyon bo'ladi. "Alpqomat" so'zi kuchli, baquvvat, mard, jasoratli insonlarga nisbatan ishlatilganligi bois ingliz tiliga "heracle figure" tarzida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, aynan "heracle figure" birligi o'zbek tilidagi "alpqomat" leksik birligiga mos.

1. Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetentsiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Ped. fan. doktori dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B.91-94,226 b
2. O'zTIL. – B. 75.
3. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта Наук, 2007. – 296 с.
4. Мейер Ф. История литературы и история менталитета – Amsterdam: Poetics,1989. – 205 с.
5. Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. – Москва: РГГУ, 2001. – 168 с.
6. Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. Учебное пособие. 2-е издание. – Санкт-Петербург: РГПУ им. А.И.Герцена, 2007. – 819 с.
7. Umarbek F. O'zbek va uyg'ur tillaridagi o'tkan zamon fe'llarining badiiy nuqtda ifodalanishi (Tarjima asarlari misolida). fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:1998. –144 b.
8. Shirinova R. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari (Frantsuz adabiyotining o'zbek tiliga tarjimalari misolida).fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:2002. –136 b; Olam milliy manzarasini badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Fil. fan. dok. Dissertatsiyasi. –T: 2017. –246 b.